

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TURIZM VA MEHMONXONA XO'JALIGI KAFEDRASI



«TASDIQLAYMAN»
Umumiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor
K.A.Samiyev

2025-yil

08.00.05 – XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARI IQTISODIYOTI

ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura (PhD)ga kirish imtihoni

DASTURI

BUXORO - 2025

Imtihon dasturi 08.00.05 – “Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti” ixtisosligi pasporti asosida “Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrasining 2025-yil “21” 10 9-sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan.

Tuzuvchi:

N.S.Ibragimov – Buxoro davlat universiteti Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası mudiri, iqtisodiyot fanlar doktori, professor.

B.N.Navruz-Zoda – Buxoro davlat universiteti Marketing va menejment kafedrası, iqtisodiyot fanlar doktori, professor.

Taqrizchilar:

A.B.Nizomov – Buxoro davlat texnika universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlar doktori, professor.

G.R.Xidirova – Buxoro davlat universiteti Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası professori, iqtisodiyot fanlar doktori.

Dastur Buxoro davlat universitetining ilmiy kengashida ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan (“21” 10 2025-yil 3 -son majlis bayoni).

KIRISH

Iqtisodiyotda servis sohaning roli oshirib borish sharoitida xizmat ko'rsatish tarmoqlarida ilmiy-tadqiqot ishlarni olib borish bugungi kunda ahamiyati ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi PF-4958-sonli farmoni bilan belgilangan mamlakatimizda oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki bosqichli tizimga o'tish munosabati bilan mutaxassislarning ilmiy va kasbiy mahoratini oshirish va malakali iqtisodchilarni xalqaro andozalar darajasida tayyorlash ko'zda tutilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni bilan belgilangan soha ilm-fani uchun beligilab berilgan ustuvor yo'nalishlar nazarda tutiladi.

"Xizmat ko'rsatish tarmoqlar iqtisodiyoti" o'z ichiga servis sohasi iqtisodiyoti va boshqarishini rivojlantirishni prognozlash va zamonaviy tendentsiyalarini tahlil qilish; ilmiy asoslangan xo'jalik yuritish shakllarini aniqlash; xizmat ko'rsatish tarmoqlari majmua, tashkilot, muassasa va korxonalarida xo'jalik yuritish mexanizmi turlari, ijtimoiy ne'matlarni ishlab chiqarish va boshqa masalarni qamrab oladi.

Dasturda qo'yilgan mavzular va savollar tayanch doktorantura, doktorantura hamda mustaqil izlanuvchilik institutiga kiradigan talabgorlarga ushbu sohadagi umumiy nazariy bilim darajasini, tarmoqdagi mavjud amaliy muammolarni va ularning yechimlarini topish uchun yetarli bilim, ko'nikmalarga ega ekanligini aniqlash maqsadida tayyorlangan.

Dastur oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim bosqichlariga o'qishga kirish uchun 08.00.05 – "Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti" ixtisosligi bo'yicha kirish imtihoniga tayyorgarlik ko'rish va uni topshirish uchun mo'ljallangan.

DASTURNING MAQSADI VA VAZIFALARI

08.00.05 – "Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti" ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura (PhD)ga kiruvchilar uchun mo'ljallangan ushbu sinov

dasturining asosiy **maqsadi** - talabgorlarning servis sohasining nazariy va amaliy muammolarini chuqur tahlil qilish, xizmat ko'rsatish tarmoqlarini boshqarish va rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlar, metodologik yondashuvlar hamda amaliy tadbiri ko'nikmalarini baholashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish maqsadida dastur quyidagi **vazifalarni** bajaradi:

- servis sohasining iqtisodiy mohiyati, tuzilishi va infratuzilmasi bo'yicha fundamental tushunchalar va nazariyalarni baholash;
- xizmat ko'rsatish tarmoqlari bozorini, uning segmentlarini va raqobat muhiti xususiyatlarini tahlil qila olish ko'nikmalarini aniqlash;
- turizm, mehmonxona va restoran biznesi, transport va rekreatsiya xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini hisoblash va baholash usullarini sinovdan o'tkazish;
- xizmatlar narxini shakllantirish, rentabellik va xarajatlarni tahlil qilish, moliyaviy barqarorlikni baholash bo'yicha amaliy kompetentsiyalarni tekshirish;
- xizmat ko'rsatishda sifatni boshqarish, standartlashtirish va innovatsiyalarni tatbiq etish bo'yicha strategik va operatsion yondashuvlarni baholash;
- davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, davlat-xususiy sheriklik va regulyatorlik mexanizmlarining iqtisodiy jihatlarini tahlil qila olish;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati olib borish, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va ularni hududiy va milliy darajada tatbiq etish uchun zarur metodologik va tadqiqiy ko'nikmalarni aniqlash;
- talablarga muvofiq axborot-tahlil vositalaridan (statistika, ma'lumotlar bazalari, elektron tizimlar) foydalanish hamda ilmiy axborotni tizimlashtirish va prezentatsiya qilish malakalarini baholash.

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura (PhD)ga o'qishga kiruvchi **talabgorlar quyidagi bilim, tayyorgarlik va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur:**

- xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti fanining predmeti, obyekti, maqsadi va vazifalarini chuqur bilish;
- xizmat ko'rsatish sohasining nazariy asoslari, rivojlanish qonuniyatlari va iqtisodiy mexanizmlarini tahlil qila olish;
- turizm, mehmonxona, restoran, transport va boshqa xizmat tarmoqlarining faoliyatini iqtisodiy jihatdan tahlil qilish hamda ularning rivojlanish omillarini baholash;
- xizmat bozori konyunkturasi, talab va taklif, narx shakllanishi, raqobat muhiti hamda marketing strategiyalarini tahlil qilish bo'yicha bilim va ko'nikmaga ega bo'lish;
- xizmatlar sifatini oshirish, innovatsiyalarni joriy etish, standartlashtirish va sertifikatlash tizimlarini iqtisodiy baholay olish;
- xizmat ko'rsatish tarmoqlarida moliyaviy barqarorlikni, rentabellikni va samaradorlikni aniqlash usullarini bilish;
- xizmat ko'rsatish tarmoqlari boshqaruvi, rejalashtirish, loyihalash va monitoring tizimlarini ishlab chiqish hamda amaliyotda qo'llay olish;
- xizmat ko'rsatish tarmoqlarida barqaror rivojlanish tamoyillarini, ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy integratsiya mexanizmlarini chuqur o'zlashtirish;
- davlat siyosati, normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro standartlar asosida xizmat sohasini rivojlantirish yo'nalishlarini tahlil qilish;
- ilmiy-tadqiqot metodologiyasini, statistik va iqtisodiy tahlil usullarini qo'llay olish, ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;
- axborot texnologiyalari, ma'lumotlar bazalari va dasturiy vositalardan samarali foydalanish, ilmiy axborotni tizimlashtirish, tahlil qilish va taqdim etish malakasiga ega bo'lish.

XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARI IQTISODIYOTI IXTISOSLIGI BO'YICHA KIRISH IMTIHONI TOPSHIRISH DASTURINING MAZMUNI

1-MAVZU. "XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARI IQTISODIYOTI" FANINING PREDMETI VA METODI

Xizmat ko'rsatish tarmoqlar iqtisodiyoti tushunchasi va metodlari. Xizmat ko'rsatish tarmoqlarining milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni. Servis sohasidagi islohotlar. Servisni rivojlanish ko'rsatkichlari. Servis sohasining tarmoq tarkibi. Xizmat ko'rsatish tarmoqlarning tafsiloti. Servis sohasining infratuzilmasi. Xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirishda qonunchilik va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish. "Xizmat ko'rsatish tarmoqlar iqtisodiyoti" fanining o'rganish usullari. Tizimli tahlil usulida xizmat ko'rsatish tarmoqlar iqtisodiyotini o'rganish tamoyillari. Xizmat ko'rsatish shakllari.

2-MAVZU. TURIZM BOZORI VA XIZMATLARI TUSHUNCHASI, ULARNING XUSUSIYATLARI

Turizm bozori tushunchasi va uning vazifalari. Turizm bozor tarkibi. Bozor infratuzilmasi. Turoperator turizm bozori qatnashchisi sifatida. Turizm bozori iste'molchilari. Xizmat darajalari. Xizmatlar paketi. Xizmatlar dasturi. Xizmatlarni yetkazib beruvchilar. O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishda xizmat turlarini takomillashtirish. Xizmatlar bozorida elektron biznesning mohiyati va ahamiyati. Turistik xizmatlar bozorida yo'nalishlarni rivojlantirish va rivojlantirish strategiyasi. Turistik mahsulotni ilgari surish usullari. Ekoturizmning tushunchasi va turlari. Rekreatsiya va sayyohlik sohasidagi biznesning ijtimoiy mas'uliyatining iqtisodiy asoslari. Rekreatsiya va sayyohlik sohasida bozor vositalarini qo'llash samaradorligini oshirish. Xalqaro va ichki turistik bozorlar va ularning alohida segmentlarini rivojlantirishning asosiy tendentsiyalarining hozirgi holati va prognozi.

3-MAVZU. SERVIS XIZMATLARIGA NARXLARNI SHAKLLANTIRISH

Xizmat ko'rsatish tarmoqlarida narx yaratish siyosati. Turistik mahsulot narxining tarkibiy tuzilishi. Turistik faoliyat harajatlari va daromadlari. Turizmga narx belgilash usullari. Imkoniy narxni belgilovchi holatlar. Turistik marshrutning bahosini xizmatlar ko'rsatish narxlari bo'yicha aniqlash.

Mehmonxona xizmatlarini narxlashtirishning mohiyati va xususiyatlari. Mehmonxona xizmatlari narxini belgilash uslublari. Mehmonxonalar faoliyatida narxni yaratish siyosatida jahon tajribasini qo'llash. Mehmonxonalarning narxlashtirish siyosatini takomillashtirish yo'llari.

4-MAVZU. TURIZMDA RAQOBAT STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH

Raqobat tushunchasi. Raqobat turlari. Turizm bozorida raqobat va raqobatbardoshlikning mazmuni va mohiyati. Turizmni rejalashtirishning bosqichlari. Turistik xizmatlar sotishda raqobat strategiyasini ishlab chiqish. Rekreatsiya va sayyohlik sohasining resurs salohiyati va ulardan foydalanish samaradorligi. Animatsiya xizmatlari qatorini kengaytirishga asoslangan maqsadning raqobatbardoshligini oshirish. Turistik firmalarning SWOT-tahlil usuli. Dam olish va turizm sohasida strategik boshqaruv. Turizm korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlash. Bozor va davlat regulyatorlarining turistik-rekreatsiya sektori tarmoqlari va majmualarini rivojlantirishga nisbati. Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlash.

5-MAVZU. TURISTIK DESTINATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA MEHMONXONA XO'JALIGINING O'RNI

Mehmonxona industriyasi. Mehmonxonalar faoliyatining iqtisodiy ahamiyati. Joylashtirish vositalarining hududdagi turistik destinatsiyalar va resurslarni rivojlantirishdagi o'rni va roli. Mehmonxona sanoatida innovatsion boshqaruv. Sanatoriya sohasidagi tashkilotlar faoliyatining rivojlanishining xususiyatlari. Bozor-sayyohlik xizmatlarida mehmonxona zanjirlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini boshqarish. Memondo'stlik sanoatida resurs

salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish. Xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik va o'rta biznesning xususiyatlari.

6-MAVZU. MEHMONXONALARDA SIFATLI XIZMAT KO'RSATISHNI TASHKIL QILISH

Sifatning mazmun va mohiyati. Xizmatlar sifati. Texnik va funksional sifat. Xizmat ko'rsatish sifati modeli. Sifatni boshqarish tizimi. Mehmonxonada xizmat ko'rsatish sifatini oshirish dasturini ishlab chiqish. Sifatni boshqaruvchi xizmati.

Mehmonxonalar zanjiri va uning ustunligi. Mehmonxona zanjirlarining mohiyati, ahamiyati, tuzilishi, ustunlik tomonlari. Dunyo yirik mehmonxonalari zanjiri. O'zbekistonda mehmonxona zanjirlarining rivojlanish holati.

Rekreatsiya va sayyohlik sohasidagi xizmatlar samaradorligini va sifatini yaxshilash mexanizmlari. Rekreatsiya va sayyohlik sohasidagi davlat xizmatlarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi va sifati.

7-MAVZU. RESTORAN BIZNESINI TASHKIL ETISH

Turizmدا restoran biznesi haqida umumiy tushuncha. Restoranda xizmat ko'rsatish madaniyati. Restoran xizmatlarini standartlash va sertifikatsiyalash. Dunyoning mashhur restoran zanjirlari. Umumiy ovqatlanish korxonalarining tavsifi. Umumiy ovqatlanish korxonalarini joylashtirish tamoyillari. Restoran oshxonasida ishlatiladigan idish-tovoqlar va anjomlar.

Restoranda taomnoma va uni tuzish tartibi. Restoran faoliyatini samarali tashkil qilish. Restoran faoliyatini tashkil etishda boshqaruv funksiyalarining o'rni. Restoranda strategik boshqaruvdan foydalanish. Restoranda boshqaruv usullari va tamoyillaridan foydalanish. Mehmonxona restorani faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.

Mehmonxona restoranining joylashuvi. Restoran dizayni. Restoran xodimlari vazifalari. Metrdotel vazifalari. Ofitsiantga qo'yilgan umumiy talablar. Restorandagi xizmatlar turi. Menu. Mehmonxona oshxonasi tarkibi. Banket servis. "Room Service" - nomerda xizmat ko'rsatishni tashkil etish. Restoran biznesida tadbirkorlik faoliyati uchun infratuzilmani qo'llab-quvvatlash.

8-MAVZU. TRANSPORT SERVISI XUSUSIYATLARI

Turizm sohasida transport xizmatlari. Transportda tashish xizmatlarining tasniflanishi. Turizm soxasida transport vositalari. Transport ta'minoti. Transport kompaniyalari. "O'zbekiston Havo yo'llari". "O'zbekiston temir yo'llari". Chiptalarni buyurtma qilish. Tashish marshrutlarini ishlab chiqish. Turizm sohasida transport xizmatlari turlari. Transportda xizmat ko'rsatish va qulaylik darajalari. Turistlarga transportda xizmat ko'rsatish.

9-MAVZU. XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARDA INNOVATSIYALAR

Servis korxonalarida innovatsion faoliyatining xususiyatlari. Yangi xizmatlar yaratish tamoyil va modellari. Yangi xizmatlarni yaratish sabablari. Tovar va xizmatlarni ishlab chiqishdagi o'xshashliklar va farqli jihatlar. Yangi xizmatlar ishlab chiqish dastaklari. Yangi xizmatlar ishlab chiqish jarayoni. Xizmat ko'rsatishni loyihalash asoslari.

Turistik firmalarda innovatsion faoliyat. Iqtisodiyotning globalizatsiyalashuvi va uning turizm rivojiga ta'siri. Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarning turizm sohasidagi innovatsion jarayonlariga ta'siri. Turizmدا innovatsion jarayonlar asosida turistik xizmat bozorining rivojlanishi. Turistik firmalar innovatsion strategiyalarni ishlab chiqish mexanizmi. Turizmni barqaror rivojlanishning innovatsion yo'li. Iqtisodiy innovatsiyalar asosida turizmni barqaror rivojlantirish strategiyalari. Xizmat ko'rsatish sohasining innovatsion rivojlanishini ta'minlashning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlari.

Mehmonxona biznesida innovatsion jarayonlarning rivojlanishi tarixi. Mehmonxona biznesida texnologik innovatsiyalar. Aqlli mehmonxonalar. Mehmonxona xo'jaligida ekologik muhitni saqlashga qaratilgan texnologik innovatsiyalar. Mehmonxona xo'jaligida innovatsion faoliyat samaradorligini baholash.

Restoran ishida innovatsion faoliyati yo'nalishlari. Restoran ishini tashkil etishda innovatsion yondoshuvlarni tadbiq etish xususiyatlari. Restoran xizmatlarini

ishlab chiqarishdagi innovatsiya turlari. Restoran innovatsion strategiyasini tanlash. Restoran innovatsion loyihalarini investitsion diqqatga tortuvchanligini aniqlash. Restoranlarni xizmat bozoridagi innovatsion faolligi ko'rsatkichlari. Restoran biznesidagi yangi novatorlik g'oyalari.

10-MAVZU. XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARDA FOYDA VA RENTABELLIK

Xizmat ko'rsatish korxonalarda foyda manbai. Xizmat ko'rsatish korxonalarda foydaning turlari, ularni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi, tasnifi, aniqlanish va tahlil qilish yo'llari. Xizmat ko'rsatish korxonalarda foyda ko'rsatkichlari o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar va ularni aniqlash yo'llari.

Xizmat ko'rsatish korxonalarda rentabellikning mohiyati. Xizmat ko'rsatish korxonalarda rentabellik ko'rsatkichlari tizimi va ularning tasnifi. Xizmat ko'rsatish korxonalarda rentabellik ko'rsatkichlarini aniqlash yo'llari. Xizmat ko'rsatish korxonalari rentabelligini ifodalovchi ko'rsatkichlarning boshqa ko'rsatkichlar bilan qiyosiy tahlili. Xizmat ko'rsatish korxonasining ishlab chiqarish fondlari rentabelligining tahlili. Xizmat ko'rsatish korxonalarning barcha aktivlari rentabelligi. Korxonalar o'z mablag'lari rentabelligi tahlili. Xizmat ko'rsatish korxonalarda mahsulot va xizmatlar rentabelligi tahlili.

11-MAVZU. XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI XARAJATLARI

Turistik xarajatlarning tarkibiy tuzilishi. Xizmat ko'rsatish korxonalari xarajatlarini tasniflash. Xizmat ko'rsatish korxonalari xarajatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Xizmat ko'rsatish korxonalari xarajatlari o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar. Xizmat ko'rsatish korxonalari xarajatlari samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Xizmat ko'rsatish korxonalarning xarajatlarini kamaytirish yo'llari. Xizmat ko'rsatish korxonalarning moliyaviy barqarorligini baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi. Xizmat ko'rsatish korxonalarning moliyaviy barqarorligini tahlil qilish. Xizmat ko'rsatish korxonalarda bankrotlik ehtimolini baholash. Turistik xarajatlari kamaytirish yo'llari.

12-MAVZU. XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARDA ISH HAQI VA MEHNAT UNUMDORLIGI

Xizmat ko'rsatish korxonalarda ish haqi turlari. Xizmat ko'rsatish korxonalarda ish haqi xarajatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularning tasnifi, aniqlanish va tahlil qilish yo'llari. Xizmat ko'rsatish korxonalarda ish haqi xarajatlari o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar va ularni aniqlash yo'llari. Xizmat ko'rsatish korxonalarida ish haqi xarajatlari samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni tahlil qilish yo'llari. Xizmat ko'rsatish korxonalarda mehnat unumdorligi, uni aniqlash va tahlil qilish yo'llari. Iqtisodiy tahlil natijalarini umumlashtirish va turistik korxonalarda ish haqi xarajatlarini optimallashtirish va mehnat unumdorligini oshirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tegishli axborotlar tizimini shakllantirish. Mehmonxona sanoati va sanatoriya sohasida mehnat salohiyatini boshqarish tizimini shakllantirish.

13-MAVZU. XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH

Xizmat ko'rsatish sohasida intellektual mulkni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy asoslari. Xizmat ko'rsatish sohasidagi mahalliy ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash shakllari.

Xizmat ko'rsatish sohasida intellektual mulkni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy asoslari. Turizm sohasida axborotni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish. Bozor va davlat regulyatorlarining tarmoqlar va xizmat ko'rsatish sohasi komplekslarini rivojlantirishga nisbati. Xizmat ko'rsatish sohasidagi mahalliy ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash shakllari. Xizmat ko'rsatish sohasining notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash. Xizmat ko'rsatish sohasida xayriya faoliyatining iqtisodiy muammolari, homiylik. Aholini ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy asoslari. Xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikchiligi.

Bozor va davlat regulyatorlarining turistik-rekreatsion soha tarmoqlari va majmualarini rivojlantirishga nisbati. Rekreatsiya va sayyohlik sohasidagi

korxonalar, tashkilotlar va komplekslarni davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash.

Tayanch doktorantura (PhD)ga kiruvchilar uchun sinov imtihonining javoblarini baholash umumiy mezonlari

Ball	Bilim darajasi
86-100	Javoblarida fanning mavzulari va savollari bo'yicha ijodiy fikrlash mavjud bo'lsa, mamlakatimizda modernizatsiyalash jarayonlarini jadallashtirish, demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasidan kelib chiqqan vazifalarni bajarish yo'llari o'z aksini topgan bo'lsa, qo'yilgan muammoni yechish bo'yicha tavsiyalar bergan bo'lsa, savol bo'yicha javobda mustaqil mushohada yuritilgan bo'lsa, tavsiyalarni amaliyotga qo'llash tartiblari ko'rsatilgan bo'lsa
71-85	O'z javobida qo'yilgan savol bo'yicha mustaqil mushohada yuritgan bo'lsa, ularning mohiyatini deyarli to'liq ochib bergan bo'lsa, qo'yilgan muammoni yechish bo'yicha o'z tavsiyalarini bergan bo'lsa
55-70	Javobida fan bo'yicha variantga kiritilgan savollarga qisman javob bergan bo'lsa, asosiy tushunchalarga bergan izohi kam bo'lsada, mavjud bo'lsa
0-54	Javobida qo'yilgan savol mazmuni umuman yoritilmagan bo'lsa, izohlar mavjud bo'lmasa, ya'ni, talabgor javobida qo'yilgan savollar bo'yicha umuman tasavvurga ega emasligi aniq bo'lsa

Izoh: Tayanch doktoranturaga kirish imtihonlari bo'yicha topshiriladigan birinchi fan (mutaxassislik yoki chet tili) umumiy ballining 50% dan kam ball to'plagan talabgorlar keyingi bosqichga o'tkazilmaydi.

08.00.05 – “Xizmat ko‘ratish tarmoqlari iqtisodiyoti” ixtisosligi bo‘yicha baholash mezonlari

№	Umumiy ball	Tayanch doktorantura (PhD)ga kiruvchining bilim darajasi	Xususiy ball
Savol nazariy bo'lsa			
1	18-25	Qo'yilgan savollar mazmunan aniq yoritilib, demokratik islohotlar va jarayonlarning mazmunan mohiyati to'liq ochib berilgan;	8-10
		O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy islohotlar tahlili va ularning amaliy samaralari, natijalari va hayotga tadbiq etilishi bo'yicha mustaqil, ijodiy fikr mavjudligi;	6-7

		Javoblarda mantiqiy yaxlitlikka erishilgan va umumiy xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega; Imlo va stilistik xatolarga yo'l qo'yilmagan.	4-5 0-3
			18-25
2	13-19	Materialni chuqur tushunadi, savolga to'liq javob bergan, lekin ayrim noaniqliklarga yo'l qo'ygan, faktlarga to'g'ri baho bera olgan, mustaqil fikrlash va xulosalarni asoslay olish qobiliyatiga ega, javobda mantiqiy ketma-ketlikka amal qiladi, masalani hal qilishga umuman ijodiy yondasha olgan; Javobda doktorantura (PhD)ga kiruvchining mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi; Ijodiy yondashuv mavjud; Muammoni tahlil qilish qobiliyatiga ega.	6-8 5-6 2-4 0-1
			13-19
3	4-10	Savolga javobda masalaning mohiyatini tushunilgan, ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan; Mushohada bayonida fikr tarqoqligi kuzatiladi; Javoblarda mantiqiylik tamoyili buzilgan; Tasavvurga ega, lekin tahlil yo'q;	2-3 1-3 1-2 0-1 0-1
			4-10
4	0-3	Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas; Umuman javob yozilmagan; Noto'g'ri javob va ma'lumot berilgan; O'quv adabiyotidan aynan so'zma-so'z ko'chirilgan;	0-3
			0-3

Izoh: Imtihon jarayonida talabgorlar 4 ta savolga javob berishlari talab etiladi.


Har bir savolga maksimum 25 ball beriladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. "Turizm to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. O'zbekistonning yangi qonunlari.-T.: Adolat, 2019 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 49-son, 558-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 avgustdagi "2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3217-sonli Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-fevraldagi "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3514 sonli Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3510 sonli Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-fevraldagi "Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3509 sonli Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvar "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-son Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01.2020
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 14 oktabr "“Qadimiy Buxoro” turizm zonasini qurish” loyihasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida” gi 825-sonli Qarori.
10. A.Abduvohidov, F.Qutlimurotov. - Turizm iqtisodi. - Darslik. - TDIU, 2011 y. - 127 b.
11. Abdusattarova X.M. Innovatsiya strategiyasi - o'quv qo'llanma - T.:TDIU, 2011. 233– bet.

12. Alieva.M.T. Mehmonxona menejmenti. Darslik. - T.:TDIU.2010 y.
13. Hayitboyev R. va boshq. "Turizm marshrutlarini ishlab chiqish". O'quv qo'llanma. SamISI. 2016.176 b.
14. Kamilova F.K., Ro'ziev S.S. Turizm marketingi. O'quv qo'llanma – T: TDIU, 2007. – 204 b.
15. Kamilova F.Q., Hamidov O.H., Kamilov Z.K. Mehmonxona va restoran xo'jaligi marketingi. Darslik. TDIU. 2011.143 b.
16. Mamatqulov X. M. Mehmonxona va turistik komplekslarda xizmatlarni tashkil etish. O'quv qo'llanma. -S.: SamISI, 2012.-340b.
17. Mamatqulov X.M. Turizm infratuzilmasi. O'quv qo'llanma. –T.: "O'zbekiston faylafuslar jamiyati" nashriyoti, 2011.-273b.
18. Mamatqulov X.M., Bektemirov A.B., Norchaev A.N. "Xalqaro turizm". Darslik. Toshkent. 2009.231 bet.
19. Mirzaev M.A., Alieva M.T. Turizm asoslari. O'quv qo'llanma.-T.:O'zbekiston faylafuslar jamiyati, 2011.
20. Turistik hudud raqobatbardoshligi [Matn]: Monografiya \ i.f.d., prof. B.N.Navruz-Zoda tahriri ostida. Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyotli, 2017 - 160 b.
21. Tuxliev I.S., Haitbaev R., Ibadullaev N.Y., Amriddinova R.S. Turizm asoslari. O'quv qo'llanma. -S.: SamISI.
22. Tuxliev I.S., Quدراتov G'.H., Pardaev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. – T.: «Iqtisod-moliya» nashriyoti. 2010.-263b.
23. Tuxliyev I.S., Bektemirov A.B., Usmanova Z.I. Turizmda strategik marketing. O'quv qo'llanma.-S.: SamISI, 2010. -144b.
24. Tuxliyev I.S., R.Hayitboyev, B.Sh.Safarov, G.R.Tursunova. "Turizm". Darslik.T.: "Fan va texnologiya", 2014 y.–439 b.

Kafedra mudiri:



N.S.Ibragimov